



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 11



ТОШКЕНТ-2024

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шоқир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор,
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор,
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Урганч давлат университети

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети


Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Ollabergan Allaberganov 1950 – 1960-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSR QISHLOQ AHOLISINING IJTIMOIIY HAYOTI, MUAMMO VA ZIDDIYATLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	5
2. Муслима Базарова ЎЗБЕКISTОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАРИДА ХОТИН- ҚИЗЛАРНИНГ ЎРНИ.....	11
3. Laylo Begimqulova AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIY HAYOT.....	20
4. Akmal Mengliboyev SOVET HOKIMYATI DAVRIDA SURXON VOHASIDA MULKDORLARNI QATAG‘ON QILISH SIYOSATI.....	26
5. Asliddin Namazov SOVET MUSTABID DAVRIDA ILM-FANNI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	31
6. Zuhra Rajabova SOVETLAR DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA TA‘LIM TIZIMINING BA‘ZI MASALALARI....	37
7. Dinora Tirkasheva QASHQADARYO VOHASI AHOLISI HUNARMANDCHILIGIDA QADIMGI E‘TIQOD IZLARI.....	42
8. Umarali Shamayev XIX – XX ASRLARDA DENOV TUMANI YODGORLIKLARINING O‘RGANILISH TARIXI.....	47
9. Feruza Qayumova FARG‘ONA VODIYSIDA TURIZMNING SHAKLLANISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (1920 – 1936 yillar misolida).....	52
10. G‘ayratbek Haydarov O‘ZBEKISTON VA ROSSIYA FEDERATSIYASI HAMKORLIK ALOQALARI TARIXI (1992 – 2013-yu.).....	57
11. Тўлқин Худойқулов ХИВА ХОНЛИГИ МАРКАЗИЙ БОШҚАРУВИНИНГ ИЧКИ ВА ТАШҚИ ОМИЛЛАРИ: МАЪМУРИЙ ИДОРАСИ ВА МАҲАЛЛИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ.....	62
12. Ўткир Якубов ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ДАВРИДА ЎЗБЕКISTONDA ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИ, ҚУРИЛИШЛАР, “ИШЧИЛАР БАТАЛЬОНИ” ВА ДЕМОГРАФИК ЖАРАЁНЛАР.....	70



Zuhra Sa'dullayevna Rajabova,
Urganch Ranch texnologiya universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti,
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
razabovazuhra7@gmail

SOVETLAR DAVRIDA O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMINING BA'ZI MASALALARI

For citation: Zuhra S. Razhabova. SOME ISSUES OF THE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 11, pp.37-41

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14205844>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Sovet davrida O'zbekistonda ta'lim tizimining ba'zi masalalari tahlil qilingan. Unda sovetlar O'zbekistonda yangi ta'lim tizimini yaratishdan ko'zlagan asosiy maqsad savodxonlikka erishish asnosida kommunistik g'oyalarni targ'ib qilishga ham qaratilgani qayd etilgan.

Shuningdek, ta'lim sohasida sovetlar tomonidan olib borilgan siyosat aholini savodli qilishga qaratilgan bo'lsa-da aslida tub mohiyatida imperiya manfaatlariga bo'ysundirilganligi, aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan rus-tuzem maktablarining ochilishi va ular sonining jadallik bilan oshib borganligi kommunistik mafkura manfaatlariga xizmat qilganligi ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Ta'lim tizimi, an'anaviy ta'lim, kommunizm, tarix, targ'ibot.

Зухра Саъдуллаевна Ражабова,
Технологический университет Ранч в Ургенче,
Кафедра Социальных наук
доктор философии (PhD) по историческим наукам
razabovazuhra7@gmail

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В СОВЕТСКИЙ ПЕРИОД

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются некоторые проблемы системы образования Узбекистана в советский период. Отмечается, что основной целью Советов по созданию новой системы образования в Узбекистане было продвижение коммунистических идей при одновременном обеспечении грамотности.

Также научно обоснована что политика, которая проводилась советами в области образования якобы была направлена на повышение грамотности населения, но фактически она была подчинена интересам империи и коммунистической партии.

Ключевые слова: Система образования, традиционное образование, коммунизм, история, пропаганда.

Zukhra S. Razhabova,
Ranch University of Technology in Urganch,
Department of Social Sciences
Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
razabovazuhra7@gmail

SOME ISSUES OF THE EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN DURING THE SOVIET PERIOD

ABSTRACT

This article analyzes some problems of the education system of Uzbekistan during the Soviet period. It is noted that the main goal of the Soviets in creating a new education system in Uzbekistan was to promote communist ideas while ensuring literacy.

It is also scientifically proven that the policy that was carried out by the Soviets in the field of education was supposedly aimed at increasing the literacy of the population, but in fact it was subordinated to the interests of the empire and the Communist Party.

Index Terms: Education system, traditional education, communism, history, propaganda.

1. Dolzarbligi:

XX asr boshlarida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va amalga oshirilgan chora-tadbirlar nafaqat bugungi kun ta'lim tizimida hal qilinayotgan ko'plab muammolarning sabablarini aniqlashga, balki tarixiy saboqlarni hisobga olgan holda zamonaviy ta'lim siyosatini olib borishga imkon beradi. Darhaqiqat, prezident Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda: "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi"[1]. Jamiyatning rivojlanishi kishilar ongi va tafakkurining shakllanishi va rivojlanishida ta'lim asosiy hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugun mamlakatimizda ta'lim tizimi taraqqiyoti o'zining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Shunday ekan, ta'limning Rossiya imperiyasi mustamlakachiligidan to mustaqillik davrigacha bo'lgan davr taraqqiyotini o'rganish, O'zbekiston hududida ta'lim taraqqiyotini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Metodlar:

Maqolada umumqabul qilingan metodlar – ilmiylik, xolislik, tarixiylik, qiyosiy tahlil kabi nazariy uslubiy tamoyillar asosida sovetlar davrida O'zbekistondagi ta'lim tizimi ilmiy tahlil etilgan.

3. Tadqiqot natijalari:

Ma'lumki, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi hududning tanazzulga uchrashi bilan birga dunyoning rivojlangan davlatlaridan ko'plab sohalarda orqada qolishiga sabab bo'ldi. Ta'lim sohasida ham sovetlar tomonidan olib borilgan siyosat aholini savodli qilishga qaratilgan bo'lsada aslida tub mohiyatida imperiya manfaatlariga bo'ysundirish edi. Buni aholini ruslashtirish maqsadida tashkil qilingan rus-tuzem maktablarining ochilishi va ular sonining jadallik bilan oshib borishida ko'rishimiz mumkin.

Turkistonda mustamlagachilik davriga qadar an'anaviy ta'lim tizimi mavjud bo'lib, bilim olish asosan islom dini qoidalari asosida tashkil qilingan. Maktab va madrasalarda diniy ta'lim bilan birga dunyoviy fanlar ham o'rgatilgan.

Boshlang'ich ta'lim maktablarida 5-6 yil davomida arab alifbosi harflarini o'qitish yo'lga qo'yilgan.

Oliy ta'lim bu davrda madrasalarda berilgan va bitiruvchilardan Islom qoidalari, Quroni karim oyatlari va suralarning sharhlarini o'zlashtirish talab etilgan.

Mustamlakachilik davrida Sovet o'quv maskanlarini o'qituvchi kadrlar hamda kerakli mablag' bilan ta'minlash yo'lga qo'yildi. Bu davrda eski an'anaviy ta'lim tizimi maktablari saqlanib qolgan bo'lsada hukumat: Eski maktab, madrasa, masjidlarni qo'llab-quvvatlashdan bosh

tortdi. Bunday siyosat natijasida diniy tashkilotlarni moddiy asosi hisoblangan vaqf mulklari, maktab, madrasalar tugatildi[2]. Birgina O‘zbekiston SSRning Xorazm viloyatida 1925 – 1928-yillar davomida 10 ga yaqin masjidlar yopib qo‘yiladi[3].

XX asrining boshlariga kelib, O‘zbekistonda ta‘lim tizimi keng qamrovli o‘zgarishlarga duch keldi. Endilikda ta‘lim tizimi Sovet Ittifoqining ideologik va siyosiy maqsadlariga moslashtirila boshlandi. Rossiyaning turli hududlaridan ko‘chirib keltirilgan aholi bolalariga ta‘lim berish bilan birga tub joy aholisi o‘rtasida rus madaniyatini keng yoyishga xizmat qiladigan ta‘lim tizimini yaratishga harakat qilindi. Shu yo‘sinda rus-tuzem maktabi tashkil qilina boshladi. 1884-yili 19-dekabrda Toshkentda savdogar Saidazimning o‘g‘li Said G‘ani Azimboyev hovlisida yigitlar rus-tuzem maktabi ochildi. 1903-yilda qizlar rus-tuzem maktabi tashkil etildi. Maktab mudiri va rus o‘qituvchisi etib V.P.Nalivkin, musulmon sinfining o‘qituvchisi etib esa mulla Solixo‘ja Kichkinaxojinov tayinlangan[4]. O‘sha vaqtda rus ma‘muriyati rus o‘qituvchisi uchun yillik maoshini 1000 rubl, mahalliy o‘qituvchi uchun esa 400 rubl qilib belgilanishi, mahalliy millat o‘qituvchisiga nisbatan nohaqlik qilinganligini yaqqol ifodalagan. Rus-tuzem maktablari mahalliy aholi uchun dunyoviy ta‘lim olish mumkin bo‘lgan yevropa tilidagi birinchi maktab bo‘lgan. Rus-tuzem maktablarida o‘qiydigan o‘zbek va tojik bolalari uchun islom dinini o‘qitish kerak, toki otionalari bu maktablardan qo‘rqmasinlar, degan g‘oya asos qilib olingan edi[5]. Ushbu maktablarning maqsadi endilikda shakllanadigan tub aholi bolalaridan hudud ma‘muriyatining quyi pog‘onasi uchun mansabdorlarni tayyorlashdan iborat bo‘lgan.

1919-yil 26-dekabrda “RSFSR aholisi o‘rtasida savodsizlikni tugatish to‘g‘risida”gi Farmonda respublikaning 6 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan, o‘qish va yozishni bilmaydigan barcha aholisi “o‘qish va yozishni o‘rganishi shart” deb ta‘kidlangan. Savodxonlik fuqarolarning huquqi emas, balki majburiyati bo‘lganligi sababli, farmonda o‘qishdan qochishga urinish uchun jinoiy javobgarlikgacha bo‘lgan jazo choralari ko‘zda tutilgan edi[6]. Rossiya amalga oshirgan iqtisodiy va siyosiy chora tadbirlar bilan bir qatorda kadrlar tayyorlash va ta‘lim tizimi butun mamlakat bo‘ylab tarqaldi va deyarli barcha aholi ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi [7].

Sovet davrida boshlang‘ich va o‘rta ta‘lim majburiy va bepul edi. Bu siyosat Sovet Ittifoqining ta‘lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, barcha bolalarga ta‘lim olish imkoniyatini ta‘minlash va majburiy ta‘lim tizimi orqali bolalarning savodxonligini oshirish va ularni jamiyatning faol a‘zolari sifatida tarbiyalashga qaratildi. Sovetlar davridagi majburiy ta‘lim bir nechta bosqichda amalga oshildi:

- Boshlang‘ich ta‘lim: Boshlang‘ich yetti yillik maktab ikki pog‘onaga bo‘lindi: 1-pog‘ona bilim yurtlari (dastlabki uch sinfni o‘z ichiga olardi) va 2-pog‘ona bilim yurtlari (qolgan to‘rt sinfdan iborat edi)[8]. Bu ta‘lim bosqichida o‘quvchilar asosiy savodxonlik va hisob-kitob ko‘nikmalarini o‘rganishdi.

O‘rta ta‘lim: O‘rta maktab ham mavjud bo‘lib, keyingi uch sinfni o‘z ichiga olardi. O‘rta ta‘lim maktablari (7 – 10-sinflar) ham majburiy edi. Biroq bunday maktablar juda oz bo‘lib, 1-pog‘ona bilim yurtlari, ya‘ni eng oddiy ta‘lim beradigan maktablar tabiiy yo‘lga qo‘yishda rus pedagoglaridan Farg‘onada ishlagan A.V.Yaxontov va A.P.Sutyagin, Toshkentda K.Libknext nomidagi tajriba mehnat maktabini tashkil etgan V.F.Lubensovlar ko‘p ish qildilar. Yirik shaharlardagi bir qator rus maktablari va Toshkentdagi o‘zbek maktablarida fidokor pedagoglarning intilishlari tufayli 1920-yil oxirida o‘quv-metodik ishlar asta-sekin yo‘lga qo‘yila boshlandi. Lekin shuni alohida ta‘kidlash joizki, bu davrda hali o‘qituvchilarning kasbiy saviyasi juda past edi[9]. Bu bosqichda, jumladan, matematika, fizika, kimyo, biologiya va tarix fanlari o‘qitildi. Sovet davrida maktablarning kundalik hayoti qat‘iy ishlab chiqilgan tartib asosida amalga oshirildi. O‘quv kuni boshlanishi va uni qanday o‘tkazish, o‘quvchilar jalb etilgan jamoat tashkilotlari – oktabr, pioner, komsomoldan tortib, o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya berish siyosiy jihatdan qolipga solingan edi[10].

Ta‘lim jarayonida kommunistik tarbiya asoslari targ‘ib qilindi va yosh avlodni kommunistik qadriyatlar asosida tarbiyalash boshlandi. Madaniy-ma‘rifiy muassasalardan ommaga g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazish maqsadida keng foydalanildi. Darsliklar va o‘quv rejalari markazlashgan holda ishlab chiqildi va markaziy nashriyotlar tomonidan chop etildi. Bu davr siyosati sovet hokimiyatini

mustahkamlash borasida oldin Turkiston, keyinchalik O‘zbekiston hududida ta‘lim, maorif tizimini sovetlar manfaatlariga, bolshevistik mafkuraga bo‘ysundirishga qaratilganligini ko‘rsatdi.

- Oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, universitetlar va institutlar tashkil etildi. Bu muassasalar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga yo‘naltirildi.

Yangi tashkil etilgan sobiq Sovet Ittifoqida Oliy ta‘limni qayta tashkil etishning boshlanishi RSFSR Xalq Komissarlari Soveti tomonidan ishlab chiqilgan 1918-yil 2-avgustdagi “Oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari to‘g‘risida”gi farmoni bilan asoslanib, bu mustamlaka hududlarda ham oliy o‘quv yurtlarini qayta tashkil etish imkonini bergan. Natijada Turkiston xalq universiteti (1918-yil aprel), Sharq instituti (1918-yil oxiri), Turkiston davlat universiteti (1920-yil noyabr), Toshkentda K.A.Timiryazev nomidagi Xalq ta‘limi instituti (1920-yil sentabr tashkil etilib, 1921-yildan O‘rta Osiyo davlat universiteti pedagogika fakulteti), Toshkentda kommunistik universitet (1921-yil avgust) tashkil etildi[11].

1940 – 1941-o‘quv yilida respublikadagi 30 ta oliy o‘quv yurtlarida 19,1 ming talaba tahsil olgan bo‘lsa, 1958-yilda oliy o‘quv yurtlariga 18,5 ming kishi yoki 1953-yildagiga nisbatan 5 mingdan ko‘proq talaba qabul qilindi[12].

XX asrning 20 – 30-yillarida hukmron kommunistik partiyaning madaniy-qurilish siyosati asosan «shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyatini shakllantirishga qaratildi[13]. Kommunistik mafkura mahalliy xalqning milliy g‘ururini sindirishga, milliy ma‘daniyatdan, milliy an‘analardan chalg‘itishga urinishga qaramasdan, o‘zbek xalqi o‘zligini, qadimiy milliy madaniyati va qadriyatlarini saqlab qolishga harakat qildi. Sovet hokimiyati “kommunizm” va “sotsializm” kabi g‘oyalarini xalq ongiga singdirish uchun barcha choralardan, vositalardan va usullardan foydalandi. Bu yo‘lda o‘ziga hos kurashlar va qancha yo‘qotishlar qilindi. Ammo o‘zbek halqi bularning barchasiga bardosh berdi va kelajakda ijtimoiy-siyosiy hayotda o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga ishonadi.

4. Xulosalar:

XX asrning boshlarida O‘zbekiston hududida ta‘lim tizimi bilim o‘rganish va o‘qitish masalalari jamiyatda hukmron mafkura tomonidan o‘rnatilgan ta‘lim tizimlari tarkibida kechdi. Qolaversa, bu davrda Uzbekistonda jamiyat rivojlanishi, mafkuraviy nuqtai nazardan ham umumta‘lim maktablari, o‘rta va oliy o‘quv yurtlarini kengaytirish uchun mahalliy aholi orasidan mutaxassislar yetishtirishga majburiy zarurat tug‘dirdi. Bu davrda o‘qituvchilarni tayyorlash jarayoni jamiyatda bolsheviklar siyosiy hukmronligining kuchayishi bilan ta‘limning mazmun mohiyatida mafkuraviy jihatlar ustun qo‘yildi. Buning oqibatida kadrlar tayyorlash masalasi ham hukmron mafkura ta‘siri ostida qoldi. Ta‘lim tizimi bilan bog‘liq qabul qilingan hukumat qarorlari faqatgina hukmron mafkura targ‘iboti uchun xizmat qiluvchi kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash uchun xizmat qildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mirziyoyev Sh. Maktab ta‘limini rivojlantirmasak, yoshlarimiz sharoit bor joylarga ketadi. [Mirziyoyev Sh. If we do not develop school education, our youth will go to places where there are conditions.] // <https://kun.uz/53070317?q=%2Fuz%2F53070317>

2. Boltaboyev M. Sovet hokimiyatining 1920 – 1924-yillarda BXSР va XXSRda diniy muassasalar faoliyatiga munosabati. O‘zMU xabarlari (1.3.1 soni). Toshkent, 2024. B.3. [Boltaboyev M. The attitude of the Soviet authorities to the activities of religious institutions in the BPSR and the KhPSR in 1920-1924. UzMU messages (issue 1.3.1). Tashkent, 2024. P.3.]

3. O‘z MA, 2456-fond, 1-ro‘yxat, 10-ish, 14, 140-varoqlar [Central Archives of Uzbekistan, fund 2456, list 1, case 10, 14, sheets 140]

4. Akramov D. Xalq maorifining nazariy asoslari. FarDU Ilmiy xabarlar.№ 2-2023. B. 549. [Akramov D. Theoretical foundations of public education. Scientific reports of FarSU. No. 2-2023. P. 549.]

5. Abdullayeva M, Ta'lim tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: “Muharrir nashriyoti” -2013. B. 65-66. [Abdullayeva M, Ta'lim tarixi. /O'quv qo'llanma. – T.: “Muharrir nashriyoti” -2013. Pp. 65-66.]
6. Quchqarov D.A. XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda maorif sohasidagi siyosat va uning amalga oshirilishi. Synergy: Journl of ethics and governance Volume: 03 Issue: 3 | March-2023 ISSN: 2181-2616. [Kuchkarov D.A. Education policy and its implementation in Uzbekistan in the 20s of the 20th century. Synergy: Journal of ethics and governance Volume: 03 Issue: 3 | March- 2023 ISSN: 2181-2616.]
7. Birol Akgün, Yusuf Alpaydın. Global Agendas and Education Reforms. Istanbul, Türkiye -2024. [Birol Akgun, Yusuf Alpaydın. Global Agendas and Education Reforms. Istanbul, Turkey - 2024.]
8. Фрид Л. Очерки по истории развития политико-просветительной работы в РСФСР (1917-1929 гг.). – Ленинград, 1941. – С. 103. [Fried L. Essays on the history of the development of political and educational work in the RSFSR (1917-1929). – Leningrad, 1941. – P. 103.]
9. O'sha yerda [same place]
10. Quchqarov D. XX asrning 20-yillarida O'zbekistonda maorif sohasidagi siyosat va uning amalga oshirilishi. [Kuchkarov D. Education policy and its implementation in Uzbekistan in the 20s of the 20th century.] Snergy: Journl of ethics and governance. Volume: 03 Issue: 3.|March- 2023. P.13.
11. Narmanov F. XX asrning 20-30 yillari Oliy ta'limda tarix o'qituvchilarini tayyorlash masalalari. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ta'lim va innovatsion tadqiqotlar ilmiy va ilmiy texnik onlayn konferensiya. 2024. [Narmanov F. Issues of training history teachers in higher education in the 20s-30s of the 20th century. Educational and innovative research educational and innovative research scientific and scientific technical online conference. 2024.]
12. Қодиров Э. Совет Ўзбекистони халқ маорифи. –Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – Б.71. [Kadyrov E. Public knowledge of Soviet Uzbekistan. –Tashkent: Uzbekistan, 1964. – P.71.]
13. Ro'ziboyev.N.O. Sovet hokimiyati davrida O'zbekistonning ma'naviy-madaniy qaramligi va uning oqibatlari. [Ro'ziboyev.N.O. Spiritual and cultural dependence of Uzbekistan during the Soviet period and its consequences.] Eurasian journal of socialsciences, Philosophy and culture. innovative academy research support center. 2023.

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 11 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 11

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 11

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000